



ÒZBEK, LOTIN VA FRANSUZ TILLARIDA TIBBIY TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK TAXLILI

Bakayev N.B

Osiyo Xalqaro Universiteti
Tibbiyot fakulteti, Klinik fanlar

kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10652497>

ABSTRACT

Received: 07th February 2024

Accepted: 09th February 2024

Published: 12th February 2024

KEYWORDS

*terminologiya, elektron lugʻat,
leksikografiya,
avtomatlashtirish.*

Ushbu maqolada tibbiy leksikografiya sohasining onlayn rivoji hamda leksemaning butun mohiyatini tezkorlik bilan kitobxonga yetkazish, ma'lumotlarni qayta ishlash tartibini avtomatlashtirish, yangi faol leksikografik sistemalarni yaratish, buning natijasida elektron lugʻatlar yaratish muammolari haqida ma'lumot berilgan.

Kirish. Jahon miqyosida tibbiyot institutlari talabalarining oʻz oʻquv faoliyatlarining ilk kunlaridanoq lotin tili va tibbiy terminologiya fanini oʻrganishni boshlaydilar. Tabiiyki, bu fan ular uchun yangi fan, lotin tili alifbosi, fonetikasi, ot, sifat, fe'l soʻz turkumlari, moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar, murakkab anatomik- gistologik va klinik terminlar tarjimai ularning barchasini hamma talaba bir hilda yaxshi yoki aʼlo darajada oʻzlashtira olmaydi. Ayniqsa, moslashmagan va moslashgan aniqlovchilarning tarjimasida ularning oʻzlashtirish darajasi oqsaydi. Sababi oʻzbek tili grammatikasida moslashmagan aniqlovchilar belgisiz bogʻlanish degan qoidaga ham ega. Moslashgan aniqlovchi tushunchasi juda murakkab. Oʻzbek tilida soʻnggi vaqtlarda grammatik qoidalarga eʼtiborning kamayishi, maktab davrida oʻquvchilarga shevaga oid soʻzlardan foydalanishga ruxsat berilishi kabi bir qator sabablar bilan qaratqich kelishigi qoʻshimchasining ishlatilmasligi talabaning toʻgʻri tarjima qilishiga toʻsqinlik qilmoqda. Oʻzbek tilidan lotin tiliga tarjima qilishda adashgan talaba teskari jarayon yaʼni lotin tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilishda ham xato tarjima qilishi aniq. Toʻplangan malakalar shuni koʻrsatadiki, talaba oʻrganilayotgan tilning murakkab mavzularini ona tilisining grammatik tuzilishini eʼtiborga olgan holda olib borishlari muvoffaqiyot meʼzoni hisoblanadi. Har bir oʻrganilgan til malakasi insonning til bilish malakasiga taʼsir qilib va uni boyitib boradi. Bilimlar dunyosida yangi sahifaga duch kelgan talaba uni oʻzlashtirishda avvalambor oʻzi oʻrgangan usulini qoʻllaydi. Tillar borasida esa ikki tilning oʻrganilayotgan va oʻzbek tilining morfologiyasi va grammatikasini yaxshi bilishi talaba uchun muvaffaqiyat zinasini hisoblanadi. Oʻz navbatida boshqa fanlar qatori tibbiyot yoʻnalishlarining umumkasbiy fanlar guruhiga kiruvchi lotin tili va tibbiy terminologiya fani oʻqituvchisi ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari, vositalari, prinsiplari va tamoyillarini bilishi lozim. Tilshunoslik fanining muhim tarmoqlaridan boʻlgan leksikografiyada lugʻat tuzish borasida bevosita maxsus terminologik tadqiqotlar ham olib boriladi. Bu turli hajmdagi terminologik lugʻatlarning yaratilishi va nashr ettirilishida oʻz ifodasini topib, olimlar tomonidan yangi terminlarning qayd etilishi, ularning ilmiy isʼtemolga olib kirilishini talab qiladi. Chunki, bugungi globallashtirish davrida oʻzligini

anglagan har bir xalq millati va milliy qadriyatlarini asrab qolish ustida tinimsiz bosh qotirmoqda.

Tibbiy terminologiya sohasi alohida semantik maydon sifatida fan bilan, fan taraqqiyoti, undagi yangiliklar va o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda yuzaga keladi, yashaydi va soha uchun xizmat qiladi.

Tibbiyotni terminsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirgi kunda ingliz tili lug'at zaxirasining kengayishi boshqa tillardan yangi so'zlarni olish bilan emas, balki ichki imkoniyatning so'z yasash usuli bilan bog'liq.

Barcha tillarda terminologik tizim alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki terminologiya til boyligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, o'sha tilda sohalar rivojlanishining dinamikasini ko'rsatadi. Ingliz tilida ham terminologiya, sohaviy terminlar atrofiga o'rganilgan, salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Materiallar va metodlar. XX asr oxirida ko'plab tadqiqotchilar terminologiya sohasidagi natijalarni umumlashtirishga harakat qilishdi. K.Ya.Averbux, I.M.Alekseevoy, M.N.Volodina, A.C.Gerd, E.I.Golovanova, C.B.Grinev-Grinevich, E.S.Kubryakova, V.M.Leychik, I.A.Manerko, C.I.Mishlanova, E.A.Nikulina, V.F.Novodranova, X.Pixt, A.B.Superanskaya, R.Temmerman, S.D.Shelov, A.D.Shmeleva va boshqa tilshunoslar davriylashtirish muammolari va terminologiya tendensiyalarini ko'rib chiqdilar.

Tahlil va tavsiyalar. Tibbiyotga oid lug'atlarni shakllantirishda asosan keltirilayotgan barcha ruscha-baynalmilal tibbiy terminlar quyuq shriftda alifbo tartibida joylashtiriladi va asosan birlik sonda beriladi, agar termin birlik sonda topilmasa, unda ko'plik sonidan qarash kerak. Ko'plik son aksari birlik son bilan birga keladi, bunda birlik sonning oxiriga ruschada -и (yoki ы), o'zbekchada -lar qo'shiladi, masalan, симптом-ы – симптом-лар. Agar ko'plik son so'z ildizining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsa yoki ы, -лар qo'shilganda talaffuz buziladigan bo'lsa, terminning ko'plik soni to'liq beriladi, masalan: артерия – артерии – артериялар; узел – тугун; узлы – тугунлар.

Tibbiy terminlar rus-baynalmilal tilida keltiriladi; uning muqobillari lotincha ekvivalentda beriladi, ammo lug'atni ortiqcha ma'lumotlar bilan og'irlashtirmaslik, joyni iqtisod qilish maqsadida lotincha muqobilining etimologiyasi berilmaydi. Terminlarning yozilish shakli ruscha va o'zbekchada bir xil bo'lsa, lotin tilidagi nomi keltirilgandan so'ng o'zbekchada ham uning yozilishi takrorlanadi, masalan: *glucosuria* – глюкозурия – *glukozuriya*; ammo *болезнь*, *болезни* – *morbis* – kasallik. Terminlarning asosiy qismi lotin terminlardan hosil bo'lganligi uchun ularning shu tilda ekanligi ko'rsatilmaydi, ammo boshqa tillarda bo'lsa, yoziladi; masalan, *кабинет* – *фр. Cabinet* va h.k.lar. Termin ikkita so'zdan tuzilgan bo'lsa, so'zlarning ham to'g'ri tartibi, ham teskari tartibidan foydalanilgan; masalan: *Гона очаг ёки Очаг Гона*.

Tibbiyot terminologiyasida quyidagi guruh moddalar, jarayonlar, tushunchalar va asboblarning lotincha yozilishi berilmagan: kimyoviy birikmalar, fermentlar, biokimyoviy jarayonlar, substratlar; dori moddalar, dorivor o'simliklar (firma qabul qilgan va farmakopeyaga kirgan asosiy nomlari retseptlarda keng qo'llaniladigan dorilar bundan mustasno); apparatlar; simptomlar va sindromlar; aksari mutaxassisliklar, tibbiy kasblarning nomlari; alohida terminlar sifatida lug'atda mavjud so'zlardan tashkil topgan murakkab terminlarning aksariyati; xususiyy tibbiyot termini bo'lmay, boshqa sohalarda ham lotincha

ekvivalenti qabul qilingan atamalar va umuman, lotincha yozilishi kam uchraydigan yoki tor mutaxassislar uchungina tushunarli bo'lgan terminlar hisoblanadi.

Tibbiyotga oid lug'atlarda terminlarning ruscha hamda o'zbekcha-kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi izohi keltiriladi.

Xulosa. To'plangan tibbiy lingvistik birliklar asosida lug'atning semantik bazasi shakllantiriladi va tasniflanadi. "Tibbiy atamalar izohli lug'ati", "Tibbiy sinonimlar lug'ati", "Tibbiy eponimlar lug'ati" lug'atlari ishlab chiqiladi va nashr ettiriladi. Buning amaliy natijasi esa axborotni qayta ishlash jarayoniga avtomatik usullarni tatbiq qilish tibbiy lingvistika, leksikografiya sohasida ham mobil ilovalarning imkoniyatlari asosida maxsus optimal texnologiyalar asosida ishlashni, lug'atchilikka zamonaviy information leksikografik dasturlarni faol qo'llash orqali yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, o'zbek atamashunosligi zahirasini boyitish maqsadida ushbu elektron lug'atda terminlarning atamalar orqali yoritilishi, aniq va ixcham terminlar o'rniga sermazmun izohlarning berilishi, aytilishi noo'rin bo'lgan tibbiy terminlarning noyob tibbiy atamalar bilan to'ldirilishi, ularni yaratishda ona tili imkoniyatlaridan keng foydalanishi asos qilib olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК СРЕДСТВО ОБМЕНА УЧЕБНОЙ ИНФОРМАЦИЕЙ НА РАССТОЯНИИ. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(2), 278–282.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6282694>
2. Bakaev N.B. (2022). METHODOLOGICAL BASIS OF MASTERING FOREIGN LANGUAGE. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(3), 146–150.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6378840>
3. Бакаев Нажмиддин Бакаевич, Рахмонов Сухроб Бахриддинович. (2022). ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В СОВРЕМЕННЫХ РЕАЛИЯХ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6585277>
4. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОЙ АНАТОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ПОЛИЛИНГВАЛЬНОЙ ГРУППЕ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(9), 49–56.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7073544>
5. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev, Najmiddin Bakaevich Bakaev, Nafisa Zainiddinovna Tasheva STUDYING PHILOSOPHICAL REALITIES OF THE RENAISSANCE EPOCH, BASED ON THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL TEXTS // Academic research in educational sciences. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/studyingphilosophical-realities-of-the-renaissance-epoch-based-on-the-structural-analysis-ofphilosophical-texts>
6. Shavkatovna, M. A. (2022). ENLIGHTENMENT-MORAL, PHILOSOPHICAL, LINGUISTIC VIEWS OF MODERN CREATORS.
7. Shavkatovna, M. A. . (2022). Interrextuality in Rick Riordan's Work. American Journal

- of Social and Humanitarian Research, 3(9), 180–185. Retrieved from <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1507>.
8. Mirzaeva Aziza Shavkatovna. (2021). Allusion As The Way Of Rendering Elements Of Ancient Greek Mythology In The Tissue Of Modern Literature. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 505-514. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue01-91>
9. Shavkatovna, M. A. . (2022). Interrextuality in Rick Riordan's Work. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(9), 180–185. Retrieved from <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1507>.
10. Aziza Mirzaeva Shavkatovna. (2022). THE INTERTEXTUAL AND INTERCULTURAL REFERENCES IN LODGE'S CAMPUS NOVELS. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(11), 29–35. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume02Issue11-05> .
11. Kurbanova G.N. (2023). THE CONCEPT OF PROFESSIONAL THINKING AND ITS PEDAGOGICAL ESSENCE. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(2), 42–48. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7608601>.
12. Курбанова Г.Н. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(2), 49–55. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7608606>.
13. Kurbanova G.N. (2023). THE SIGNIFICANCE OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN THE DEVELOPMENT OF SUDENTS' PROFESSIONAL THINKING. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(2), 56–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7608608>
14. . Zikiryaeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna *PSYCHOLOGY IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE. EURASIAN JOURNAL SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE* Innovative Academy Research Support Center. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6585273>
15. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev. Bakaev Najmiddin Bakaevich. expressions.. (2020). The role of the Latin language in the history of world statehood. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 367-372. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-85-71> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 1203. THE ROLE OF THE LATIN LANGUAGE IN THE HISTORY OF WORLD STATEHOOD
16. Shodiyev Shaxobiddin Sharofiddinovich, & Tasheva Nafisa Zayniddinovna. (2021). THE ROLE OF THE WAY OF THE GREAT STEPPE IN THE CONTINUITY AND RELATIONSHIP OF THE PHILOSOPHY AND CULTURE OF THE MUSLIM EAST AND THE RENAISSANCE WEST. *Innovative Academy Research Support Center*, 1(3), 9–13. <http://doi.org/10.5281/zenodo.4925956>